

GKG

GEODEZIYA, KARTOGRAFIYA VA GEOINFORMATIKA
ILMIY - TEXNIK JURNALI

ISSN-I-2181-4546



GEODEZIYA
KARTOGRAFIYA
GEOINFORMATIKA

№1
2024



Mundarija / Содержание / Contents

Sh.Tuxtamishev, A.Mirzaev, O.Urakov, G'Azzamov - Arxeologik yodgorliklarni qidirishda geodezik kartografiq tadbiqotlar	6
S.Abduraxmonov, N.Teshayev, R.A'zamov, J.Tojiboyev, U.Tillaboyev - Gai va kartografiq metodlar asosida demografik ko'satichilarning vob'ilovasini iakomillashurish	11
O.Urokov - Deimiy izhilovchi sun'iy yo'l doshil davlat geodezik tarmoqlari (corz) stanziyalarining aniqligini o'changan mazofalar orqali baholash	14
A.Mirzayev - Leica ls - 02 rusumli elektron taxomeerlarning sanog olish izimidagi xavoliylani iadqiqoi eish	18
M.Hayitova, Sh.Yaxshiboyev, A.Minavarjonov, B.Xamidov - Toshken shahridagi avtoulovlarni yuvish shoxobchalarini ro'g'irizida ma'lumot va kamchiliklar	22
B.Muslimbekov, A.Boyirov, U.Toshpo'latov, A.Ne'matullayev - Toshken shahridagi tibandiklarni gat texnologiyalari asosida monioring qilish usullarini iakomillashurish	24
R.Oymatov, N.Teshayev, K.Rizayev, A.Abdumurotov, B.Fayzullayev - Gat va mazofadan zondilash ma'lumotlari asosida global iqlimi o'zgarishining ta'sirlarini tahsil qilish (xatirchi tumani mizolida)	28
O.Ro'ziqulova, A.Muxiddinov, J.Maxmudov, T.Homidov - Sentinel - 2 va landsat - 8 oli sun'iy yo'l dosh ma'lumotlari afzalliklari va kamchiliklarning qiyosiyi tahlili	32
A.Suyunov, F.Xushmurodov - Agrolandzhaflarini zhakilaniziga qazhgadaryo vohazi hidrologik sharoitining ta'ziri muammolari	36
Э.Мирмахмудов, А.Рузинев, Б.Тошонов, А.Нуратдинов - Анализ точности расстояний между двумя пунктами в горной местности	44
O.Ro'ziqulova - Xariashuvishni ayrim masalalari	49
А.Суюнов, Г.Муллоджанова - Мониторинг на геодинамических полигонах в республике узбекистан: значимость и особенности	53
С.Уврайимов, А.Мўминов - Ислом цивилизацияси маданий мерос объектларини гар технологиялари асосида харитага олинига уларнинг маҳсус шартни белгилар бахтини ишлаб чиқкиши	57
Х.Мубораков, О.Юсупжонов, А.Рўзиев, Б.Тошонов - Йирик шакарлар геодезик тармоқларини глобал сунъий ўйлодиши кузатишларидан фойдаланиб қайта қуриши ҳақида (тошкент шакри мисолида)	65
L.Pirnazarov, Sh.Tuxtamishev - Uchuvchisiç uchuvchi qurilmalar yordamida olingan surʼularni agisoj photoscan dasturi bilan ob'yekting uch o'chamli modelini yaratishda aktual yechim	72
Ў.Мухторов, М.Исроплова - Латми ерлардан фойдаланишининг можиҳати	75
A.Jumanov, D.Tuxtasheva, I.Norqobilov - Qizilqo'q xo'jaligida yerdan foydalananiz samaradorligi	80
К.Рахмонов, В.Вахобов, М.Абдурахимова - Ер фондидан фойдаланиши ҳолатини моделланитиши орқали прогнозлаши	89
А.Худойберганов, О.Алланазаров, Н.Худайкулов, С.Хикматуллаев - Усиллик дунёси кабодстри роқабалии карталарини тузуни учун зарур бўлган масофадан зондланни материальларини генерализация қилини усуллари....	93
А.Ашуров - Совершенствование воспроизводственного цикла земель приусадебных и дехканских хозяйствах..	100
А.Ашуров - Томорка ва дехқон хўжаликларида ер ресурсларидан самарали фойдаланиши омиллари.....	106
A.Valiyeva - Muhandislik geodeziyada masalalarini hal qilishda lagerli skanerlardan foydalanimish	110
M.Hayitova - Masofadan zondlashda go'llaniladigan vegetasiya indekslarini buxoro viloyati olov tumani qishloq xo'jaligi ekin turini ajratishdagi aniqligini baholash	114
K.Xakimova, D.Mamanazarova, Sh.Prenov - Aerokosmik metodlardan foydalanimib jarg'onai viloyati sug'orish tarmoqlarini elektron kariasi ma'munini ishlab chiqish	118
A.Valiyeva - Анализ геодезических методов определения деформационных характеристик высотных сооружений на территории узбекистана	123
T.Shavazov - Sentinel-2 ma'lumotlari va google earth engine api yordamida yer ussi suvlarini baholash: samargand suv omborini misol sifarisida o'rganish	129

3. Гиршберг М.А. Геодезия. – М.: Недра, 1967.- 384с.
4. Инструкция по нивелированию I, II, III и IV классов. Москва: Недра. 1974. –158 с.
5. Основные положения о построении государственной геодезической сети СССР. Москва: Геодезиздат,1961. 29 с.
6. Мирмакмудов Э.Р., Ниязов В.Р., Тошонов Б.Ш. Электрон тахеометр ёрдамида тахеометрик съёмкани бажариш бўйича ўкув-услубий кўлланма. Тошкент-2021.- 44 б.
7. Мирмакмудов Э.Р., Раҳмонов Д.Н., Тошонов Б.Ш., Нурадинов А.У. Об основных требованиях к тахеометрической съемке холмистой местности. 7Universum. 2023, 5(110). С. 50-54.
8. Muborakov H. va boshq. Geodeziya. I va II qism. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2021. – 484 b.
9. Injenerlik-topografik syomkalar uslubini takomillashtirish: geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati: 11.00.06 / A.S. Ro'ziyev. – Т.: 2023
10. Проворов К.Л., Носков Ф.П. Радиогеодезия.М.:Недра. 1973. –352с.
11. <https://www.geospektr.ru/taheometry/trimble/M3-DR-5-14376.html>

UO'K: 528.9

XARITASHTIRISHNI AYRIM MASALALARI

Ro'ziqulova Oyxumor Shermamatovna - "TIQXMMI"-milliy tadqiqot universiteti, Geodeziya va geoinformatika kafedrasи.

Annotatsiya: Odam tug'ilari ekan, insoniylik xususiyatlarini shakllantira boshlaydi. Yaxshi yashashga intilish insonga xos xususiyatdir. Aholi iqtisodiy jihatdan mustaqillikga erishganidan ta'minlanganlikda, bo'yи va tana vaznini ortib borishi kabilarda ham ko'rishimiz mumkin. Tana vaznining ortishi semizlik deb yuritilib, semizlikni xaritalash masalasi ham dolzarblik kasb etib bormoqda. Tibbiy-geografik xaritalarda voqeа va hodisalar ko'p hollarda migdorli rang (fon) usulida tasvirlanadi. Bu esa xaritalardan foydalanishda noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Semizlikni sharhl belgisini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Kalit so'zlar: xaritalash, tibbiy geografiya, semizlik.

Аннотация: Когда человек рождается, у него начинают формироваться человеческие качества. Желание жить хорошо – это

человеческая черта. Мы также можем наблюдать увеличение роста и массы тела по мере того, как население становится более экономически независимым. Увеличение массы тела считается ожирением, и вопрос карттирования ожирения приобретает все большее значение. На медико-географических картах явления и явления в большинстве случаев изображаются количественным цветовым (фоновым) способом. Это создает неточности в использовании карт. Мы считаем целесообразным разработать условный признак ожирения.

Ключевые слова: картографирование, медицинская география, ожирение.

Abstract: When people are born, they begin to form human characteristics. The desire to live well is a human trait. We can also see the increase in height and

body weight as the population becomes more economically independent. An increase in body weight is considered obesity, and the issue of obesity mapping is gaining importance. In medical-geographical maps, events and events are depicted in quantitative color (background) method in most cases. This creates inaccuracies in the use of maps. We believe that it is appropriate to develop a conditional sign of obesity.

Key words: mapping, medical geography, obesity.

Kirish.

Inson tabiatda va jamiyatda turli sohalarda toblanib boradi. Yaxshi yashashga intilish barcha insonlarga xos xususiyatdir. Dunyo bo'yicha aholini yashash tarzi borgan sari yaxshilanib bormoqda. Jumladan O'zbekistonda ham aholi iqtisodiy mustaqillikga erishib, yashash tarzi yaxshilanib bormoqda. Buni biz har bir oilada yashash uchun uy-joylar bilan ta'minlanganlikda, shaxsiy engil avtomobilarni ko'payishiha hamda aholini bo'yi va tana vaznini ortib borishi kabilarda ham ko'rishimiz mumkin.

Oholini tana vaznini ortishi "semizlik" deb yuritiladi. Semizlikka uchragan aholi sonini xaritalashtirish masalasi shu kungacha amalga oshirilmagan [1; 2]. Oxirgi yillarda O'zbekistonda va jahonda chop etilgan atlaslarda (O'zbekiston milliy atlasi, 2020; Tibbiy-geografik atlas, 2023) ham semizlikga doir xaritalarni uchratmaymiz. Mazkur atlas xaritalari asosan miqdorli rang (fon) usulida statistik ma'lumotlardan foydalangan holda tayorlangan. O'z-o'zidan xaritalarda semizlikni shartli belgisi ham yo'qligi ma'lum bo'ldi [3; 4].

Semizlik ko'plab yo'ldosh kasalliklarni keltirib chiqarishi tibbiyot xodimlarini ilmiy tadqiqotlaridan ma'lum. Jumladan K.Islamovaning ma'lumotiga ko'ra, Osteoartroz kasalligini erta rivojlanishida ahamiyatli xavf omillari sifatida ortiqcha tana vazni va semizlik

ko'rsatib o'tilgan [2]. Bundan tashqari maxsus imtiyozlarga ega bo'lgan aholi qatlamini ajratishda ham semizlik kasallik sifatida alohida keltirib o'tilgan. Nogironlik belgilari aniq ko'rinish turgan, anatomik nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, noxush klinik prognozga ega kasalliklarni ro'yxatida - semizlikning IV darajasi ham keltirilgan [5]. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Ortiqcha vaznli odam-NOGIRON hisoblanadi.

Klassifikasiya	TVI-(kg)/(m ²)	Kasalliklar kelib chiqish xavfi
Norma	18,5-24,9	o'rtalik
Ortiqcha vazn	25-29,9	ko'ratilgan
Semizlik I daraja	30,0-34,9	o'rtalik yuqori
Semizlik II daraja	35,0-39,9	yuqori
Semizlik III daraja	40,0	juda yuqori

Semizlik TVI (tana vazni indeksi) orqali aniqlanadi (1-jadval).

TVI-vazn (kg)/bo'y (m²)

Tana vazni uchun me'yor (norma) erkaklar uchun bel aylanasi 94 sm dan oshmasligi, ayollar uchun esa, bel aylanasi 80 sm dan oshmasligi kerak [4]. Bundan tashqari to'qimalar va organlarda ortiqcha yog' borligi ham semizlik deyiladi. Bu kasallik tana vazni normadan 20 foiz va undan ko'pga oshib ketishi bilan namoyon bo'ladi.

Semizlikning 3 ta turi mavjud: birlamchi, gipotalamo va endokrin semizlik. Birlamchi semizlik tez-tez ortiqcha egulik eyish bilan va zarur jismoniy faoliyat yo'qligi bilan rivojlanadi. Gipotalamo semizlikda miyaning gormonlar ishlab chiqarishi buzilganida rivojlanadi. Endokrin semizlik organizmdagi bezlar buzilishi fonida shakllanishi tibbiyot xodimlari tomonidan ta'kidlangan [3]. Semizlikni sabablari: keng tarqalgan sababi - ortiqcha ovqat iste'mol qilish tufayli ovqatlanish xulqatvori buzilganligida namoyon bo'ladi.

Organizmga kirib kelgan kaloriyalar kundalik jismoniy faoliyat jarayonida yoqilib ketadi, yonmagan kaloriyalar esa ko'pincha yog' to'qimalarida saqlanadi.

Bundan tashqari, semirib ketishning bir necha sabablari bor: kam harakatli hayot tarzi, antidepressantlar va gormonlar ichish, jismoniy ahvoli (homiladorlik, emizish, jismoniy salohiyat kamayishi), genetik moyillik.

Oddiy qilib aytganda, bir-birini to'ldiradigan 6 ta asosiy sabab quyidagicha: yuqori kaloriyalı oziq-ovqatlarni, shakarli va spirthi ichimliklarni ortiqcha iste'mol qilish, uyqu buzilishi (kam yoki ortiqcha uyqu), uzoq televizor ko'rish va jismoniy faoliyat kamligi kabilalar bilan bog'liq.

Semizlikning salbiy ta'siriga quyidagilar kiradi: semizlik bu nafaqat estetik kamchilik, balki rivojlanishi mumkin bo'lgan xavfli kasallikklardan: qandli diabetning 2 turi, saraton, og'ir yurak-qon tomir kasalliklari, tomirlarning varikoz kengayishi, qo'shma kasalliklar va boshqalarni keltirib chiqaruvchisi hamdir. Shu bilan birga, semiz erkak va ayollarda tug'ish funksiyasi kamayadi yoki yo'qoladi, qandli diabet, jigar semirib ketishi, yurak-qon tomir kasalliklari va boshqa kasalliklar rivojlanishi mumkin. O'yplashning o'zi qo'rinchli, lekin afsuski bu haqiqat – ortiqcha vazn bevaqt o'lim xavfini uch marta oshiradi.

TVI 1997 yilda Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan taklif etilgan edi va shu kungacha dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda semizlikni davolashning usullari bilan tibbiyot xodimlari shug'ullanadilar. Bizlarni vazifamiz geoinformatik sifatida semizlikni xaritalashtirishda nimalarga ahamiyat qaratilishi, xaritografik usullari, shartli belgisini qabul qilish kabi masalalar dolzarbdir. Yirik kartograflar A.Beryant, T.Mirzaiev, A.Egamberdiev va boshqalar ta'biri bilan aytganda geografiyaning tili

xarita. Xarita yordamida vaqeа va hodisalar obrazli va modelli tasvirlanadi. Bu tasvir yordamida semizlikka moyil aholini ko'p tarqalgan hududlarini aniqlash, tasvirlash va sog'lom tur mush tarzini targ'ibotiga qaratilgan amallarni joylashtirishga qaratilgan amaliy ko'rsatmalar berishni asoslashdan iborat.

Vaznni yo'qotgandan so'ng, uni ushlab turish kerak, chunki noto'g'ri ovqatlanish bilan yo'qotilgan vaznni organizm ikki barobar qilib qayta yig'ib oladi va bemor oldingidan-da og'irroq vaziyatga tushadi. Buning oldini olish uchun, vaznni mutaxassislar bilan yo'qotish kerak.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, keyingi bir necha o'n yil ichida ortiqcha tana vazni va semizlik muammosi butun dunyoda keng avj olib bormoqda (1-rasm).



1-rasmda Er yuzasidagi semizlikka uchrangan aholi qizil va sariq ranglarda tasvirlangan rasm. Yashil va to'q yashilda semizlik darajasi me'yordagi hududlar aks ettirilgan.

Jumladan eng ko'p quruq va tartibsiz ovqatlanadigan aholi AQShlarida bo'lib, mazkur mamlakatni shtatlarida aholini semizlikka uchrashi interfaol Veb xaritalarda tasvirlangan.

Tibbiy geografik xaritalarda miqdorli rang usulida voqeа va hodisalar aks ettirilgan [1, 2]. Rang bilan birgalikda kasalliklarni xususiyatidan kelib chiqib, (yuqumli kasallikkarda) kasallik o'choqlari, tarqalish arealini yoki bir soy bo'ylab tarqalgan kasalliklarni ma'lumotlarini butun tumanga yoyilishi, tuman misolida taqdim etilishi voqeа va hodisaning tasvirlanishida xatoliklarni ortishiga sabab

bo'ladı. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, semizlikni shartli belgisi ishlab chiqilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'zbekiston respublikasida semizlik bilan kasallanish holatlari 2020 yilga qadar qayd etilmagan edi (2-jadval). O'zbekistonda 2020 yil semizlikka uchragan aholi 29679 kishi bo'lib, 0-14 yoshli bolalar o'rtasida 2441nafarni, 15-17 yoshlilar orasida 1804 kishini, 18 yosh va undan kattalar orasida 25434 nafarni tashkil qilgan.

O'zbekistonda 2021 yilga kelib esa, semizlikka uchragan aholi 119795 nafarni tashkil qilib, 0-14 yoshli bolalar o'rtasida 4327 kishini, 15-17 yoshlilar orasida, 2817 nafar, 18 yosh va undan kattalar orasida esa, 112651 kishini tashkil etdi.

2022 yilga kelib, semizlikka uchragan aholi sonini kamayganligi 145566 va 18 yosh va undan kattalar orasida esa, aksincha ortgani 137611 ma'lum bo'ldi.

Semizlikni umumiyligi aholi orasida uchrashini Sirdaryo, Farg'onva Toshkent viloyatlari misolida tahlil qiladigan bo'lsak, 2020 yil Farg'onva viloyatida ko'p kuzatilgan (jadval).

Farg'on va Toshkent Respublikasi	Sirdaryo	Toshkent	2020			2021			2022		
			Jami	0-14 yosh	15-17 yosh	Jami	0-14 yosh	15-17 yosh	Jami	0-14 yosh	15-17 yosh
1829	343	406	29679	7341	6147	119795	4327	6147	112651	34563	6147
1829	1693	119	3	5	1804	398	20	11	2817	0	3312
1829	178	213	5	1861	395	937	131	11	562	670	275
1829	343	213	3	1361	344	3435	2808	906	4963	3652	278
1829	178	1268	5	3015	266	190	131	3435	65	159	2825
1829	343	1268	3	3970	2825	190	131	3436	4336	275	137611
Aholini 18 yosh va undan kattalar											

semizlik holatiga ko'ra Farg'onva viloyatiga yaqinlashib, 18 yosh va undan kattalar orasida ham etakchilik Farg'onva aholisiga to'g'ri keladi. 2022 yil statistik ma'lumotlariga ko'ra ham Farg'onva viloyati aholisi peshqadam bo'lib, 4963 ga 4336 ni tashkil qilmoqda.

XULOSA

O'zbekistonda ham ortiqcha vazn bilan bog'liq kasalliklar uchrab turibti. Semizlik tibbiy geografik xaritalarda miqdorli rang usulida voqe va hodisalar aks ettirilib, amaliyatga qo'llanib kelinmoqda. Rang bilan birlgilikda kasalliklarni xususiyatidan kelib chiqib, (yuqumli kasalliklarda) kasallik o'choqlari, tarqalish arealini yoki bir soy bo'ylab tarqalgan kasalliklarni ma'lumotlarini butun tumanga yoyilib, tuman misolida taqdim etilishi voqe va hodisaning tasvirlanishida xatoliklarni ortishiga sabab bo'ladı. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, semizlikni shartli belgisi ishlab chiqilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- Berlyant A.M. Kartografiya, o'quv qo'llanma. M.:Aspekt Press, 2002. - 336 bet.
- Mirzaliev T., Safarov E.Yu., Egamberdiev A., Qoraboev J.S. Kartashunoslik. – Toshkent, 2012, 240 bet.
- O'zbekiston respublikasining Tibbiy geografik atlasi, 1-qism, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari. Toshkent, 2023 yil.
- O'zbekiston milliy atlasi, Toshkent, Kartfabrika, 2020.
- Islamova K.A. Samarqand davlat tibbiyot universiteti. Osteoartroz kasalligini erta rivojlanishida ahamiyatli xavf omillar. Samarqand, Biologiya va tibbiyot muammolari, 2022, №6 (140) 112-116